

MATEMATIKA KECHASIGA ATALGAN TADBIR

S E N A R I Y S I.

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar va aziz o'quvchilar. Ma'lumki o'quv yilining har bir oyi bitta fanga ajratilgan bo'lib, shu fan oyligida sinfdan tashqari tadbirlar, kechalar ochiq dars mashg'ulotlari bahs va munozaralar o'tkazilib boriladi. 2013-yil fevral oyi "Matematika" fani oyligi hisoblanib, unda turli xil tadbirlar tashril etildi. Bugungi yig'inda maktabning 5-"A" va 5-"B" sinf o'quvchilari o'rtasida matematik viktorina, ya'ni, savol-javob kechasini o'tkazish uchun to'planganmiz. Fursatdan foydalanib bu kechada har ikkala sinf o'quvchilariga omad tilab qolaman.

Ming yillar basharga ko'makdosh-dastyor
Ajdodlar mushkilin oson etgan fan
Tabiat sirlarni kashf etar bisyor
Yetti iqlimda teng tanlamas Vatan.

Me'morlikda bilsang usiz ko'p qiyin
Agronomlar uchun dasturul-amal
Texnik fanlar ichra o'rindir tayin,
Injiner har ishda qiladi amal.

Koinot safari usiz xom xayol
Ayting, bu xislatlar qaysi fanda bor?
Do'stlar, bundayin xislatga ega
Yagona fan erur – matematika.

Endi viktorina bellashuvini o'tkazish tartibi bilan tanishtiraman. Mana stolda 5-"A" va 5-"B" sinf jurnali bo'yicha raqami va ism-familiyasi yozilgan. Kartochkalar qo'yilgan. O'rtada esa 20-ta savol raqamlari qo'yilgan. Bellashuv tartibi quyidagicha: yordamchi 8-"A" sinfning faol o'quvchisi Ahmedova Maftunani taklif etamiz. Maftuna o'quvchilar va misol raqamlarini tanlaydi. Masalan: 5-"A" va 5-"B" sinfdan tanlangan o'quvchilarga misol raqamlaridan ikkitasini tanlab topshiradi. O'quvchilar tanlangan misol yoki masalani sinfiga ajratilgan doskada yozib tayyorlashadi va izohlab berishadi. Hakamlar hay'ati esa ularning javoblarini baholab boradilar. Bugungi kechamizning 2-sharti esa quyidagicha: savol-javoblar orasida siz aziz barcha o'quvchilarga matematika fani bo'yicha qiziqarli savollar va jumboqlar beriladi. Eng faol o'quvchilar aniqlanadi va taqdirlanadi. Endi esa hakamlar hay'ati bilan tanishtiraman.

2. _____

3. _____

Hurmatli hakamlar hay'ati agar o'quvchi savolga to'g'ri va to'liq javob bersa 5 ball, sinfidan 1-yordam berilsa 2 ball, raqib sinf yordam bersa raqib komandaga 3 ball berilishini hisobga olishingizni so'rayman.

Hamma vaqt insonga eng kerakli fan
Algebradan avval kelgan dunyoga.
Nil bo'yida ilk bor u panoh topgan,
Darkor bo'lgan fir'avn ehromlarida.
Aksioma kiritib yozgach Yevklid
Salmoqli fan bo'lib kelgan dunyoga
Aytingiz-ushbu fan ne deb atalar?
Aytilgan topishmoq barcha shartiga
Beshak mos keladi ilmu Handasa.

I

Endigi navbatni 1- shartga beramiz. Qani Maftunaxon marhamat boshlang. Aziz o'quvchilar bu ikki o'quvchi o'z misolini yechgunicha men sizlarga qiziqarli savollardan o'qib eshittiraman. 1- savolim quyidagicha: biz faqat matematika-matematika deymiz. Aslida o'zingiz shu so'zning asl ma'nosini bilasizmi? Qani kim aytadi?

''Matematika'' qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, ''Mathema''- ''Bilim'' degan ma'noni bildiradi. Bundan ko'rinadiki, bilim olishning asosi matematika faniga ham bog'liq ekan. SHuning uchun matematika fanini chuqur o'rganishingiz kerak bo'ladi.

Ballarni e'lon qilish uchun so'z navbatini hakamlar hay'atiga beramiz.

II _____

Endi esa qiziqarli matematikadan siz aziz o'quvchilarga 8 – sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan qiziqarli savollarga navbatni beramiz.

III _____
IV _____
V _____
VI _____
VII _____
VIII _____
IX _____
X _____

Agar kessang kesimda
Doira bo'lar har choq.
(SHar)

Bordir sakkizta uchi
Yoqlar soni oltita.
Agar kim mard o'ynasa
Uni bilar albatta.
(Kub)

To'rtburchaklar go'zali
Simmetrik o'qi to'rtta
Tengdir hamma burchagi
Tomonlar ham albatta.
(Kvadrat)

Uchburchakning uchi-la
Qarshi tomon o'rtasin
Tutashtiruvchi kesma
Qani ayting bu nima?
(Mediana)

Matematikaning tili
Harflari juda ko'p
Tabiatning har siri
U bilan yozilar xo'p.
(Formula)

Ixtiyoriy burchakni
U shartta teng bo'ladi
Ayting do'stim, bu chiziq
Nima deb ataladi?
(Bissektrisa)

Handasada asosiy
Lekin yo'qdir o'lchovi
Ikki chiziq kesilgan
Yerdadir uning joyi.
(Nuqta)

Tekislikda nuqtadan
CHIqar bo'lsa ikki nur
Hosil bo'lgan bu shakl
Ayting ne deb atalur?
(Burchak)

To'g'ri chiziq bo'lagi
Goh uzundir, goh kalta.
Kopyoqning qirralari
Undan bo'lar albatta.
(Kesma)

SHaklidir dum-dumaloq
Ko'rsang juda bo'g'irsoq.

Riyoziyot bo'limi
Boshlangan o'lchab yerni
Tekislik va fazoda

Topar yuza hajmni.

(Handasa)

Riyoziyot ilmin tarixi uzoq
Bashar tarixiga tengdir ehtimol
Riyoziyot ilmin o'rganib har choq
Basharning o'zi ham bo'lgan
barkamol.

Riyoziyot ilmi barcha uchun teng
Halol xizmat qilar barcha millatga

Riyoziyot ilmin bilib olgach keng
Zarba berish mumkin turli illatga.

Yashab turmoqdamiz atom asrida
Turli jabhalarda ketganmiz olg'a
Riyoziyot bois bunga-aslida
Riyoziyot ilmi hamisha darg'a.

Ballarni e'lon qilishgani uchun hakamlar hay'atiga, 5-"A" va 5-"B"
sinf o'quvchilariga, sinf rahbarlariga va fan o'qituvchilariga ushbu
matematika kechasini tashkil etgnlari uchun minnatdorchilik bildiramiz va
ularning o'qish va ishlariga rivoj tilab qolamiz.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT.